

**ABU RAYHON BERUNIY, AL-XORAZMIY, AL-FARG'ONIY, ABU ALI
IBN SINO VA ABU NASR FAROBIYLARNING UMUMPEDOGOGIK
G'OYALARI**

Bositova Madina Muxtorjon qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, “Boshlang’ich ta’lim” yo’nalishi
4-bosqich talabasi

Hamrayeva Nigora Akramovna,

Ilmiy rahbar, Sirg’ali tumanidagi 284-umumta’lim maktabi o’qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Sharq uyg’onish davri va unda ta’lim tarbiyaning taraqqiy etishi haqida so’z yuritildi.


Kalit so’zlar: uyg’onish davri, renessans, “Aljabr va-lmuqobala”, “Bayt ul-hikmat”, abstraktsiya, induksiya, deduksiya...

Tarixiy manbalalar XI asrda Xorazmda ilm-fanning taraqqiy etganligi haqida guvohlik beradi. Xorazm shohi Ma’mun II o’z saroyiga zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan “Bayt-ul-hikma” – Donishmandlar uyi tarixda “Ma’mun akademiyasi” deb nom qoldirgan. Bu akademianing rivoj topishida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayx, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Sahl al-Masixiy, tabib Abulkayr Xammor kabi olimlar ilmiy ijod bilan shug’ullanganlar. Lekin toj-taxt uchun kurash natijasida bu ilm dargohi o’z faoliyatini to’xtatib, olimlar esa tarqab ketishadi. Movarounnahr va Xurosonda IX asrga kelib ma’naviy-majrifiy yuksalish Sharq Renessansi – Uyg’onish davrining boshlanishiga olib keldi. O’sha kezlari Movarounnahrda ilm-fan va ma’rifat sohasida o’z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo’lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Ahmad al-Farg’oni, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat olib bordilar. Ushbu qomusiy olimlar o’z ilmiy meroslarida ta’limiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta e’tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g’oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr

taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, Sharq uyg'onish davrida sof pedagogik asarlar ham yaratilib, ta'lim-tarbiyada inson takomilining xususiy va umumiy metodlari haqida o'lmas ta'limoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga kela boshlashdi. Mazkur qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida insonning aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik takomili masalalariga katta e'tibor bergenlar.

Masalan, **Muhammad Al-Xorazmiy** (783-850) insonning kamolotga yetishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishida ilm-fanning muhim ahamiyatga ega ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan holda, pedagogik fikr taraqqiyotida munosib o'rinn egallaydi.

Ayniqsa, u matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog-uslubiyotchi olim sifatida tarixda qolgan. Xorazmiy o'z davrigacha bo'lган qadimiyl matematika fani rivojlangan mamlakatlar Vavilion (Bobil), Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini o'rgandi va o'z hayotiy talablar nuqtai nazarida ulardan farq etuvchi yangi kashfiyot yaratdi. Muhammad al-Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. "Al-kitob al-muxtasar fi-hisob al-jabr va-l muqobala" asarida ("aljabr va-l muqobala hisobi haqida qisqacha kitob") sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar va ularni yechish yo'llarini bayon etadi. Bu asar uch qismdan iboratdir.



-birinchisi algebraik qism. Uning oxirida savdo muomalasiga oid kichik bir bo'lim kiritiladi;



-ikkinchisi, geometrik qism-algebraik usul qo'llab o'lchashlar haqida;



-uchinchi qism vasiyatlar haqida bo'lib, muallif uni "Vasiyatlar kitobi" deb ataydi.

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st April, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

Muhammad al-Xorazmiy matematika fanida abstraktsiya tushunchasini kengaytiradi. Induktsiya yo'li bilan umumiy yechish usullarini hal etadi, deduktsiya yo'li bilan umumiy usullar yordamida xususiy masalalarni yechadi. "Aljabr va-l muqobala" asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib, o'zidan avvalgi bilimlarni o'rgandi va ularni sintezlashtirdi hamda amalda qo'llash usullarini bayon etdi. Muhammad al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi "Hind arifmetikasi haqida kitob" ("Hisob al-hind")dir. Asar o'nlik tizim raqamlari (1,2,3,4,5,6,7,8,9)ga bag'ishlangan. Al-Xorazmiy Hindistonda kashf qilingan o'n raqamidan iborat sanoq tizimini o'rgandi, soddalashtirdi va birinchi marta arab tilida bayon qildi.




Al-Xorazmiy "Arifmetika"si bilan birga hind raqamlari ham arab dunyosiga kirib keladi va XII asrda Yevropaning boshqa mamlakatlariga tarqaladi. Uni jahonga tanitgan Al-Xorazmiy ekani **Abu Rayxon Beruniyning** "Hindiston" asarida ham aytib o'tilgan.

U o'z davridagi Bag'dod ilmiy Akademiyasi faoliyatiga rahbarlik qilgan, bu esa uning nufuzi ko'tarilishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Astronomiya, geografiya va boshqa fan sohalarida muhim kashfiyotlar q'ilgan **Ahmad al-Farg'oniy** nomi ham mangulikka daxldordir. Chunonchi, olimning "Astronomiya asoslari haqida kitob", "Al-Farg'oniy jadvallari", "Yetti iqlimni hisoblash haqida" singari asarlari allomaga astronomiya ilmida olamshumul shuhrat keltirdi.

U Yer sharining ilk bor xaritasini tuzgan birinchi buyuk geograf olimhamdir. U faqat Sharq dunyosida shuhrat qozonibgina qolmay, balki G'arb olimlari e'tirofiga ham sazovor bo'lган. Shu bois u Yevropada "Alfraganus" nomi bilan mashhurdir. Bejiz yurtboshimiz Al-Farg'oniyini "...kishilik tarixidagi ilk Uyg'onish davrining eng zabardast va yorqin namoyandalaridan biri, o'z zamonasi fundamental fan asoschilaridan edi. Uning merosi insoniyatning yangi ilm



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st April, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

cho'qqilariga ko'tarilishiga sababchi bo'ldi, butun ma'rifiy dunyo olimlari uchun dasturulamal bo'lib xizmat qildi", deb ta'rif etmagan edi.



Ko'xna Buxoro zaminidan yetishib chiqqan **Abu Ali ibn Sino** (980-1037) tibbiyat ilmi bilan hamohang, tibbiyotni haqiqiy fan sifatida shakllanib o'z maqomiga ega bo'lishiga asos solgan buyuk olimdir.

Zotan, uning 5 jildli "Kitob al-qonun fit-tib" ("Tib qonunlari") asari aynan tibbiyotga oid benazir dasturulamal kashfiyotdir. Bu asarlar majmuini ko'zdan kechirar ekanmiz, allomaning yuksak tabiblik salohiyatiga, kasalliklarni aniqlash, ularni davolash borasidagi yuksak mahoratiga tan beramiz.

O'rta Osiyo zamini juda qadim zamonlardan ijtimoiy-gumanitar fanlar rivoj topgan makon hisoblanadi. Ayniqsa tarix, falsafa, mantiq, fiqx (huquqshunoslik) fanlari bunda muhim o'rinn tutadi.



Bu xususda gap borganda falsafa fanida nom qozongan, Sharqda "Muallimi Soniy" ("Ikkinchi Muallim", Arastudan keyin) nomi bilan mashhur bo'lgan **Abu Nasr Forobi** xizmatlarini ta'kidlamoq lozim bo'ladi.

Abu Nasr Forobi aytadi: "Ta'lim – degan so'z xalqlar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish-tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir", - deydi. Forobi nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi odobda ham qay darajada pok bo'lishi kerakligini "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilishi kerakligi to'g'risida"gi risolasida shunday ta'riflaydi: "Falsafani o'rganishdan avval, o'zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi noto'g'ri tuyg'ularga emas, balki kamolotga bo'lgan hirs-havas qolsin.



Yuqorida nomlari zikr etilgan mutaffakkirlar jamiyatning ravnaqi, ma'rifatning rivojiga bog'liq degan g'oyani ilgari suradilar. Zero, insonda komillikning muhim mezoni yuksak axloqlilikdir. Umuman IX-XII asrlarda yuz bergan Uyg'onish davrida Sharqda, xususan o'rta Osiyodan o'z yurtlari shonu-sharafini yuksaklarga ko'tarib, betakror ilmiy kashfiyotlar, chinakam mo'jizalar yaratgan mashhur iste'dod sohiblari yetishib chiqdiki, ular jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo'shdilar hamda keyingi avlodlarga bitmas-tuganmas noyob boy meros qoldirdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Махаммадиев А. Т., Худайбердиева Д. А. Пути эффективного использования маркетинговых стратегий в повышении удовлетворенности потребителей физкультурно-спортивных услуг в малом бизнесе и предпринимательстве: Социально-правовой аспект //Актуальные проблемы правового регулирования спортивных отношений. – 2021. – С. 200-206.
2. Махаммадиев А. Т., Анварова М. Д. Творческий подход дошкольного преподавателя к образованию //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 25-28.
3. Махаммадиев А. Т., Каххарова С. М. МЫШЛЕНИЕ, СОЗНАНИЕ И ГРАМОТНОСТЬ СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОСОФСКИЕ ВОПРОСЫ РЕЧЕВОГО ОБРАЗОВАНИЯ //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2. – С. 168-171.
4. Махаммадиев А. Т. Образование-источник новых идей, творческого мышления и нововведений //Профессиональное самоопределение молодежи инновационного региона: проблемы и перспективы. – 2018. – С. 156-157.
5. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lim xizmatlarini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi // "Russian" Инновационные подходы в современной науке. – 2023. – Т. 9. – №. 1.
6. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lim turlari va ularning amalga oshirilish mexanizmlari // "Germany" Modern scientific research: achievements, innovations and development prospects. – 2023. – Т. 9. – №. 1.
7. Asatillaevich A. B. The main tasks of teaching a student to youth lesson in relation to specialists //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 8. – С. 123-126.